



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

4-jild
4-son
Aprel, 2026

April, 2026
Volume 4
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



ISTE'MOL SAVATIDA TOVAR VA XIZMATLAR VAZNLARINI HISOBLASHNING USLUBIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ismailova Shaxnoza Uktamovna

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАСЧЁТА ВЕСОВ ТОВАРОВ И УСЛУГ В ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КОРЗИНЕ И НАПРАВЛЕНИЯ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Исмаилова Шахноза Уктамовна

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR CALCULATING THE WEIGHTS OF GOODS AND SERVICES IN THE CONSUMER BASKET AND DIRECTIONS FOR THEIR IMPROVEMENT

Ismailova Shakhnoza Uktamovna

Received: April 8, 2026 Revised: April 12, 2026 Accepted: April 19, 2026 Published: May 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada iste'mol savatida tovar va xizmatlar vaznlarini hisoblashning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Iste'mol narxlari indeksining aniqligi va reprezentativligi, avvalo, vaznlar tizimining qanchalik asosli shakllantirilganiga bog'liq. Maqolada uy xo'jaliklari byudjeti kuzatuv ma'lumotlarining vaznlar tizimidagi o'rni, xarajat moddalari va vakil tovarlar o'rtasidagi moslashtirish mexanizmlari, rivojlangan davlatlar amaliyotidagi yondashuvlar, milliy hisoblar va qo'shimcha manbalarning o'rni hamda O'zbekiston sharoitida vaznlarni yangilash va takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari vaznlar tizimini shakllantirishda uy xo'jaliklari xarajatlari kuzatuv asosiy statistik manba bo'lib xizmat qilishini, zamonaviy sharoitda esa ushbu tizimni milliy hisoblar, ma'muriy va tranzaksion manba, tasniflash izchilligi hamda muntazam yangilash mexanizmlari bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi [1; 2; 7; 15].

Kalit so'zlar: iste'mol narxlari indeksi, vaznlar tizimi, iste'mol savati, uy xo'jaliklari byudjeti kuzatuv, HBS, COICOP, milliy hisoblar, reprezentativlik, tranzaksion ma'lumotlar, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for calculating the weights of goods and services in the consumer basket and develops directions for their improvement. The accuracy and representativeness of the consumer price index primarily depend on how well the weighting system is constructed. The paper examines the role of household budget survey data in the weighting system, the mechanisms for aligning expenditure categories with representative goods, approaches used in developed countries, as well as the role of national accounts and additional data sources. Furthermore, directions for updating and improving the weighting system in the context of Uzbekistan are explored. The research findings indicate that household expenditure surveys serve as the main statistical source for constructing the weighting system; however, under modern conditions, it is necessary to enhance this system by integrating national accounts, administrative and transactional data sources, ensuring classification consistency, and implementing regular updating mechanisms [1; 2; 7; 15].

Keywords: consumer price index, weighting system, consumer basket, household budget survey, HBS, COICOP, national accounts, representativeness, transactional data, Uzbekistan.



Аннотatsiya: В данной статье анализируются теоретические и методологические основы расчёта весов товаров и услуг в потребительской корзине, а также разрабатываются направления их совершенствования. Точность и репрезентативность индекса потребительских цен, прежде всего, зависят от обоснованности формирования системы весов. В статье рассматривается роль данных обследования бюджетов домашних хозяйств в системе весов, механизмы согласования статей расходов и товаров-представителей, подходы, применяемые в развитых странах, а также роль национальных счетов и дополнительных источников данных. Кроме того, исследуются направления обновления и совершенствования системы весов в условиях Узбекистана. Результаты исследования показывают, что обследование расходов домашних хозяйств является основным статистическим источником формирования системы весов, однако в современных условиях необходимо дополнительно интегрировать национальные счета, административные и транзакционные данные, обеспечивать согласованность классификаций и внедрять механизмы регулярного обновления [1; 2; 7; 15].

Ключевые слова: индекс потребительских цен, система весов, потребительская корзина, обследование бюджетов домашних хозяйств, HBS, COICOP, национальные счета, репрезентативность, транзакционные данные, Узбекистан.

■ KIRISH

Iste'mol narxlari indeksini hisoblashda vaznlar tizimi markaziy metodik elementlardan biri hisoblanadi. Chunki indeks tarkibiga kiruvchi har bir tovar va xizmat guruhining umumiy narx o'zgarishiga ta'siri uning iste'mol xarajatlardagi ulushi bilan belgilanadi. Agar vaznlar tizimi real iste'mol tuzilmasini etarli darajada aks ettirmasa, narx indeksining natijalari ham iqtisodiy mazmun jihatidan sustlashadi. Shu bois zamonaviy narx statistikasida vaznlarni shakllantirish, ularni yangilash va tasniflash bilan bog'liq masalalar alohida metodik ahamiyat kasb etadi [1; 3; 4].

Xalqaro amaliyotda vaznlar odatda uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari, milliy hisoblar ma'lumotlari va ayrim hollarda qo'shimcha ma'muriy yoki tranzaksiyon manbalar asosida shakllantiriladi. IMFning 2025-yilgi CPI Manualida iste'mol narxlari indeksining vaznlari household final monetary consumption expenditure'ga tayangan holda tuzilishi, manbalar sifatida esa household expenditure surveys, national accounts va scanner yoki transaction data kabi ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi qayd etilgan [1]. Rivojlangan davlatlarda vaznlarni tez-tez yangilash, tasniflash tizimini chuqurlashtirish va yuqori darajadagi agregatsiyada izchil qo'llash amaliyoti tobora kengaymoqda [2; 5; 6; 7].

O'zbekiston amaliyotida ham vaznlar tizimini shakllantirishda uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Statistika organlarining rasmiy materiallarida INI uchun salmoqlar uy xo'jaliklarining tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari natijalari asosida shakllanishi ochiq qayd etilgan [13; 14]. Shu bilan birga, statistik tizimni mustahkamlash dasturlari doirasida uy xo'jaliklari byudjeti kuzatuvini modernizatsiya qilish, CAPI formatiga o'tish, planshetlardan foydalanish va STATA asosida qayta ishlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan [11; 12]. Mazkur holat vaznlar tizimi sifatini oshirish, vaqt bo'yicha yangilanishini tezlashtirish va yangi ma'lumot manbalari bilan integratsiyalash uchun amaliy zamin yaratadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Vaznlar tizimining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, u iste'molchilar xarajatlarning tarkibini indeks tuzilishiga olib kiradi. Ya'ni, har bir tovar yoki xizmat guruhining umumiy indeksga ta'siri uning iste'mol

savatidagi ulushiga bog'liq bo'ladi. Klassik ko'rinishda bu ulush quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$w_i = E_i / \Sigma E_i$$

bu erda w_i — i-guruhning vazni, E_i — i-guruh bo'yicha iste'mol xarajatlari, ΣE_i — barcha guruhlar bo'yicha jami iste'mol xarajatlari. Mazkur formula vaznlarni shakllantirishning eng sodda iqtisodiy asosini beradi: ko'proq xarajat qilinadigan tovar yoki xizmat guruhi indeksda kattaroq ulushga ega bo'ladi. Biroq amaliyotda masala ancha murakkab. Chunki uy xo'jaliklari kuzatuvda qayd etilgan xarajat moddalari doimo INIda kuzatiladigan vakil tovarlar ro'yxati bilan to'g'ridan-to'g'ri mos tushavermaydi. Shu sababli vaznlarni shakllantirish jarayonida tasniflash, moslashtirish, birlashtirish va ayrim hollarda ulushli taqsimlash mexanizmlari qo'llaniladi [1; 2].

BLS metodologiyasida ham CPI tarkibiy qismlarining 'relative importance' ko'rsatkichlari iste'molchilar xarajatlari yoki qiymat vaznlarining umumiy savat ichidagi ulushi sifatida talqin qilinadi. Ushbu vaznlar maxsus kombinatsiyalar uchun indekslarni tuzishda, hissa va contribution'larni baholashda qo'llaniladi [3; 4]. ONS metodologik materiallarida esa yuqori darajadagi agregatsiya aynan vaznlar yordamida elementar agregatlardan umumiy inflyatsiya ko'rsatkichlariga o'tish jarayoni sifatida izohlanadi [6]. Bu tajriba vaznlar tizimi faqat bir martalik texnik ko'rsatkich emas, balki butun indeks tuzilishini iqtisodiy mazmun bilan to'ldiruvchi asosiy bo'g'in ekanini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvda vaznlar masalasi uch darajada ko'riladi. Birinchi daraja — manba darajasi bo'lib, bunda HBS yoki o'xshash household expenditure survey asosiy statistik tayanch vazifasini bajaradi [1; 7]. Ikkinchi daraja — tasniflash va moslashtirish darajasi bo'lib, bunda xarajat moddalari COICOP yoki unga yaqin milliy klassifikatorlar bilan bog'lanadi [2; 10]. Uchinchi daraja esa agregatsiya va yangilash darajasi bo'lib, bunda vaznlarning qaysi davriylikda yangilanishi, ulardan yuqori darajadagi indekslarda qanday foydalanilishi va qo'shimcha ma'lumot manbalari bilan qayta kalibrlanishi masalalari hal etiladi [5; 6; 8].

Uy xo'jaliklari byudjeti kuzatuv iste'mol savatidagi vaznlarni shakllantirishda eng muhim statistik manbalardan biridir. Chunki aynan shu kuzatuv orqali aholining real xarajat tarkibi, iste'mol xulqi va turli tovar



hamda xizmatlarga sarflanayotgan ulushlar aniqlanadi. O'zbekistonda rasmiy statistik materiallar INI uchun salmoqlar uy xo'jaliklarining tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari asosida shakllanishini tasdiqlaydi [13; 14; 15]. 2026-yil yanvar natijalari bo'yicha e'lon qilingan press-relizda ham iste'mol tovarlari va xizmatlari savatiga kiritilgan yangi pozitsiyalar 2025-yildagi iste'mol xarajatlari tarkibi tahlili asosida yangilangani ko'rsatilgan [15].

Xalqaro amaliyot ham aynan shuni tasdiqlaydi. Avstraliya Statistik byurosi HESni CPI vaznlarini yangilash uchun mavjud bo'lgan yillarda asosiy manba deb belgilaydi, HES oralig'idagi yillarda esa Household Final Consumption Expenditure ma'lumotlaridan qayta tortish uchun foydalanadi [7; 8]. Stats NZ ham CPI review jarayonida yangi expenditure weights guruh, subgroup, class va region kesimida qayta ko'rib chiqilishini ko'rsatadi [9]. Buyuk Britaniyada yilma-yil basket va weights review amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, iste'mol xarajatlari dinamikasidagi o'zgarishlar og'irliklarga muntazam aks ettiriladi [5].

Shu bilan birga, HBS ma'lumotlari mutlaq mukammal manba emas. IMF CPI Manuali household surveysning underreporting, eslash xatolari, mavsumiy tebranishlar va vaqt bo'yicha lag bilan bog'liq zaif tomonlarini qayd etadi [1]. ABS metodologiyasi ham HESning ayrim xarajatlar bo'yicha recallga tayanishi, kichik tanlanmalarda sampling error kuchayishi va ba'zi itemlar bo'yicha noaniqliklar paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [7]. Demak, uy xo'jaliklari kuzatuv vaznlar bazasining tayanch manbai bo'lib qoladi, lekin uni qo'shimcha manbalar bilan tekshirib borish va yangilab turish zarur.

O'zbekistonda HBSni modernizatsiya qilish bo'yicha rasmiy materiallar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Statistical system strengthening hujjatlarida household budget survey bo'yicha CAPI formatiga o'tish, tanlama qamrovini oshirish va qayta ishlashni zamonaviylashtirish vazifalari qayd etilgan [11]. Prezident qarori ijrosi bo'yicha tayyorlangan ilova materialida esa planshetlardan foydalanish, KoBoToolbox platformasi hamda STATA dasturiga o'tish amaliy jihatdan yoritilgan [12]. Bu ma'lumotlar vaznlar tizimining sifatini oshirish uchun HBSni institutsional mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Vaznlar tizimini shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri — kuzatuv ma'lumotlarini indeks tuzilmasi bilan tasniflash va moslashtirishdir. Buning uchun xalqaro amaliyotda COICOP klassifikatsiyasi keng qo'llaniladi. BMT Statistika bo'limining COICOP 2018 klassifikatsiyasi uy xo'jaliklari yakuniy iste'mol xarajatlarini maqsad bo'yicha guruhlashning xalqaro referens tizimi hisoblanadi [10]. Mazkur tasniflash tizimi xarajat moddalari, vakil tovarlar va indeks guruhlari o'rtasida metodik bog'liqlikni ta'minlaydi.

Amaliyotda HBS xarajat moddalari ko'pincha INI kuzatuvdagi vakil tovarlar bilan to'liq bir xil bo'lmaydi. Shu sababli bir nechta yondashuv qo'llaniladi: to'g'ridan-to'g'ri moslashtirish, bir nechta itemlarni bitta indeks pozitsiyasiga birlashtirish, bitta xarajat moddasini bir nechta vakil tovarlarga ulushli taqsimlash yoki yordamchi ma'lumotlar asosida qayta kodlash. Eurostat HICP metodologiyasida tasniflash izchilligi va qamrov

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

muvofigligi alohida talab sifatida ko'riladi; ayniqsa yuqori darajadagi aggregation jarayonlarida ECOICOP va milliy subklassifikatorlar bir-biriga uzviy bog'lanishi kerakligi qayd etiladi [2].

O'zbekiston sharoitida ham COICOP asosidagi moslashtirishni ichki klassifikatorlar, vakil pozitsiyalar ro'yxati va kuzatuv savati bilan uzviy bog'lab yuritish zarur. Bu, ayniqsa, xizmatlar segmenti, raqamli xizmatlar, yangi savdo formatlari va tranzaksiya manbalar qo'llanilayotgan sharoitda muhimdir. 2026-yildagi metodik yangiliklarda savatga yangi xizmat va tovarlar kiritilgani, basket household expenditure structure'dagi siljishlarni aks ettirish maqsadida yangilangani rasmiy ko'rsatilgan [15]. Demak, vaznlar tizimining sifati tasniflash va savatni yangilash sifati bilan bevosita bog'liq.

Tasniflash bosqichidagi xatolar yuqori darajadagi agregatsiyada yig'ilib borishi mumkin. Shu bois itemlarni kodlash, vakil tovarlarni tanlash, yangi itemlarni joriy etish va mavjud itemlarni birlashtirish bo'yicha aniq metodik qoidalar zarur. Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tasniflash izchilligi vaznlarni shakllantirish jarayonining texnik emas, strategik qismidir [2; 6; 10].

Rivojlangan davlatlar tajribasi vaznlarni kamdan-kam qayta ko'rib chiqishdan ko'ra ularni muntazam yangilab borish ancha samarali ekanini ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada ONS har yili consumer price inflation basket va weights'ni qayta ko'rib chiqadi; bu har bir itemning iqtisodiy ahamiyati va iste'mol xarajatlari tarkibidagi o'rnini yangi ma'lumotlar asosida aks ettirishga xizmat qiladi [5]. ONSning 'higher-level aggregation and weights' metodologiyasida turli turdagi aggregates uchun vazn manbalari, chaining va re-referencing usullari tizimli yoritilgan [6].

Avstraliyada CPI 2017-yildan boshlab annual re-weighting tizimiga o'tgan. ABS metodologiyasiga ko'ra, HES mavjud yillarda asosiy manba, HES oralig'idagi yillarda esa milliy hisoblarning HFCE ko'rsatkichlari asosiy qayta tortish manbasi vazifasini bajaradi [7; 8]. Bu yondashuv vaqt oralig'i katta bo'lgan hollarda household survey ma'lumotlarining eskirib qolish muammosini yumshatadi. Yangi Zelandiyada ham CPI review jarayonida expenditure weights guruhlar va hududlar kesimida qayta ko'rib chiqiladi [9].

AQShda BLS relative importance ko'rsatkichlari narx o'zgarishlari fonida componentlarning umumiy indeksga ta'sirini baholash uchun faol ishlatiladi [3]. Bu yondashuv amaliy tahlil uchun qulay, chunki nafaqat og'irliklar, balki ularning vaqt bo'yicha updated relative importance ko'rinishlari ham hisoblanadi. Xalqaro tajribadan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, vaznlar tizimi bir martalik 'set-and-forget' emas; u muntazam yangilanadigan, zarurat bo'lsa qayta tortiladigan va yuqori darajadagi agregatsiyada qayta kalibrilanadigan statistik mexanizm bo'lishi kerak.

Rivojlangan davlatlar tajribasining yana bir muhim jihati — vaznlarni shakllantirishda maqsad va foydalanish sohasi bo'yicha farqlangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishdir. Masalan, ONS CPIH, CPI va boshqa maxsus aggregates uchun turli darajadagi ma'lumot manbalari va qayta tortish mexanizmlaridan foydalanadi [5; 6]. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham

muhim: agar umumiy INIdan tashqari maxsus agregatlar yoki bazaviy ko'rsatkichlar rivojlantirilsa, vaznlar tizimi ham ko'p darajali yondashuvga moslashishi kerak bo'ladi.

Zamonaviy CPI metodologiyasida vaznlarni shakllantirish faqat HBS bilan cheklanib qolmaydi. Milliy hisoblar ma'lumotlari, ayniqsa Household Final Consumption Expenditure ko'rsatkichlari, survey ma'lumotlarini qayta tortish va oraliq davrda yangilash uchun muhim manba hisoblanadi [1; 7; 8]. Bunday yondashuv survey ma'lumotlari vaqt bo'yicha eskirib qolishi xavfini kamaytiradi va makroiqtisodiy statistikalar bilan uzviylikni kuchaytiradi.

Ma'muriy va tranzaksiyon manbalar esa vaznlar tizimini to'liq almashtirmaydi, biroq uning dolzarbligini baholashda kuchli signal vazifasini bajaradi. Masalan, onlayn kassa chek ma'lumotlari, web-scraping asosida yig'ilgan ma'lumotlar yoki boshqa digital footprints ayrim tovar va xizmat segmentlarida iste'mol strukturasi qanchalik tez o'zgarayotganini ko'rsatishi mumkin. Rivojlangan davlatlarda bunday manbalar ayniqsa tez yangilanadigan savdo segmentlari va yuqori chastotali monitoring uchun foydali deb topilgan [1; 6; 8].

O'zbekiston sharoitida bunday qo'shimcha manbalardan yordamchi signal sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ular HBS o'rnini bosmaydi, biroq HBS natijalarining qaysi segmentlarda tezroq eskirayotganini yoki qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatishi mumkin. Shu tariqa, milliy hisoblar va tranzaksiyon signal manbalari vaznlar tizimini yanada moslashuvchan qiladi.

O'zbekiston amaliyotida vaznlarni shakllantirish uchun uy xo'jaliklari xarajatlari kuzatuvni asosiy manba bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, statistik tizimni mustahkamlash bo'yicha rasmiy materiallar HBSni modernizatsiya qilish, qamrovni kengaytirish, CAPI vositalarini joriy etish va ma'lumotlarni qayta ishlashni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi [11]. Prezident qarori ijrosi bo'yicha materiallarda esa uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlarini planshetlarda o'tkazish, KoBoToolbox platformasi va STATA dasturidan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilgani qayd etilgan [12]. Mazkur yangiliklar kelgusida vaznlar bazasining sifatini oshirish uchun muhim institutsional asosdir.

O'zbekiston uchun vaznlar tizimini takomillashtirish besh ustuvor yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Birinchidan, uy xo'jaliklari kuzatuvni ma'lumotlarini milliy hisoblar ko'rsatkichlari bilan muntazam solishtirib, sezilarli tafovutlar bo'yicha kalibrash mexanizmini joriy etish lozim. Ikkinchidan, COICOP asosidagi tasniflashni ichki vakil pozitsiyalar tizimi bilan chuqurroq bog'lab, ayniqsa yangi xizmatlar va raqamli tovarlar segmentlarida kodlash izchilligini kuchaytirish zarur. Uchinchidan, vaznlarni yangilash davriyligini cho'zib yubormasdan, kamida yillik yoki qisqa siklli qayta tortish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich baholash kerak. To'rtinchidan, tranzaksiyon ma'lumotlar, onlayn kassa cheklari va web-scraping kabi yangi manbalardan signal

sifatida foydalanib, HBS natijalarining dolzarbligini tekshirib borish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, vaznlar bo'yicha metodik hujjatlar, izohlar va foydalanuvchilar uchun tushuntiruvchi materiallarni yagona formatda e'lon qilish orqali metodik shaffoflikni kuchaytirish tavsiya etiladi [1; 2; 6; 7; 15].

Shuningdek, 2026-yildan INI metodologiyasida kuzatuv davri 25 kungacha kengaytirilgani, savatdagi pozitsiyalar 517 taga etkazilgani va ma'lumot manbalari kengaygani vaznlar tizimi uchun ham yangi talablarni yuzaga chiqarmoqda [15]. Savatga yangi itemlarning kiritilishi, mavjud itemlarning iqtisodiy ahamiyati pasayishi yoki ayrim segmentlarda xarajat tarkibining siljishi vaznlar tizimida o'z vaqtida aks ettirilishi kerak. Demak, O'zbekiston amaliyotida vaznlar tizimini takomillashtirish alohida metodik yo'nalish sifatida ko'rinishi lozim.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, vaznlar tizimini shakllantirishda uchta asosiy muammo guruhini ajratish mumkin. Birinchi guruh — ma'lumot manbalarining vaqt bo'yicha kechikishi va to'liqligi bilan bog'liq muammolar. HBS ma'lumotlari eng batafsil manba bo'lsa-da, ular to'liq joriy davr iste'mol strukturasi bilan doimo bir vaqtda mos kelmasligi mumkin [1; 7]. Ikkinchi guruh — tasniflash va moslashtirish muammolari. COICOP yoki milliy klassifikator bilan to'liq moslashtirilmagan itemlar vaznlarni noto'g'ri taqsimlash xavfini keltirib chiqaradi [2; 10]. Uchinchii guruh — yangilash davriyligi va agregatsiya usullariga taalluqli. Vaznlar uzoq vaqt yangilanmasa, narx indeksining reprezentativligi kamayadi; juda tez-tez o'zgartirilsa esa time series comparability muammolari paydo bo'lishi mumkin [5; 6].

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun optimal yondashuv household survey bazasini saqlagan holda uni boshqa manbalar bilan boyitishdan iborat bo'lishi kerak. Rivojlangan davlatlar amaliyoti ham aynan shunday yo'lni tanlagan: survey data asosiy manba bo'lib qoladi, lekin milliy hisoblar va qo'shimcha ma'muriy yoki tranzaksiyon manbalar yordamida yangilanish sifati oshiriladi [7; 8]. O'zbekiston sharoitida ham vaznlar tizimini uy xo'jaliklari kuzatuvni, milliy hisoblar, web-scraping, onlayn kassa chek ma'lumotlari va boshqa ma'muriy signal manbalari bilan uzviy bog'lash eng maqbul yo'l ko'rinadi. Bunday yondashuv indeksning nafaqat statistik sifatini, balki iqtisodiy mazmunini ham kuchaytiradi.

Muhokama natijalaridan yana bir muhim xulosa shuki, vaznlar tizimi bo'yicha metodik shaffoflik foydalanuvchilar ishonchi uchun alohida ahamiyatga ega. Vaznlar qaysi manbalarga tayanib shakllangani, qaysi davriylikda yangilangani va yangi itemlar qanday kiritilgani bo'yicha ochiq metadata mavjud bo'lsa, rasmiy statistik natijalarni talqin qilish ancha engillashadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston uchun metodik va tushuntiruvchi materiallarni kengaytirish ham muhim vazifa hisoblanadi.

**Rivojlangan davlatlar amaliyotida CPI vaznlarini shakllantirish manbalari va yangilash yondashuvlari**

Mamlakat / tizim	Asosiy manba	Yangilash yondashuvi	Metodik xulosa
Buyuk Britaniya	Household expenditure, basket review, supplementary sources	Yillik weights va basket review	Representativlikni saqlash uchun vaznlarni muntazam yangilash zarur [5; 6]
Avstraliya	HES + HFCE	Annual re-weighting	Survey va milliy hisoblar uyg'unligi samarali [7; 8]
Yangi Zelandiya	CPI review ma'lumotlari	Davriy expenditure weights review	Tasniqlash va hududiy kesimni qayta ko'rib chiqish muhim [9]
AQSh	Consumer expenditure data	Relative importance va updated weights	Vaznlarni tahliliy hissa hisobida faol qo'llash mumkin [3; 4]

O'zbekiston sharoitida vaznlar tizimini takomillashtirishni bosqichma-bosqich model asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda mavjud HBS ma'lumotlari, savat va vakil pozitsiyalar ro'yxati o'rtasidagi moslik to'liq audit qilinishi kerak. Bu

bosqichda xarajat moddalarini va indeks itemlari o'rtasidagi bog'lanishlar xaritasi tuziladi, qaysi segmentlarda to'g'ridan-to'g'ri moslik mavjud, qaysi segmentlarda esa ulushli yoki yordamchi qayta kodlash zarurligi aniqlanadi.

O'zbekiston sharoitida vaznlar tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

Yo'nalish	Mazmuni	Kutiladigan natija
HBSni modernizatsiya qilish	CAPI, planshet, KoBoToolbox va STATA yordamida yig'ish hamda qayta ishlashni takomillashtirish	Ma'lumot sifati va operativligi oshadi [11; 12]
Tasniqlashni chuqurlashtirish	COICOP va ichki vakil pozitsiyalar tizimini izchil bog'lash	Vaznlarni itemlar bo'yicha aniqroq taqsimlash [2; 10]
Qayta tortish tizimi	Milliy hisoblar va qo'shimcha manbalar yordamida oraliq davrda yangilash	Vaznlarning dolzarbligi oshadi [1; 7; 8]
Raqamli signal manbalari	Onlayn kassa chek ma'lumotlari va web-scrapingdan yordamchi manba sifatida foydalanish	Iste'mol tarkibidagi siljishlarni erta aniqlash
Metodik shaffoflik	Vaznlar bo'yicha ochiq tushuntiruvchi materiallar va metadata e'lon qilish	Foydalanuvchilar ishonchi va xalqaro moslik kuchayadi

Ikkinchi bosqichda HBS ma'lumotlari milliy hisoblar va boshqa mavjud administrativ manbalar bilan solishtiriladi. Kalibrlash uchun potentsial og'ishlar, ayniqsa tez o'zgaradigan segmentlarda aniqlanadi. Uchinchi bosqichda yordamchi signal manbalari — onlayn chek ma'lumotlari, web-scraping va boshqa raqamli manbalar — qaysi tovar yoki xizmat guruhlarida xarajat strukturasi dinamikasini erta ko'rsatib berishi mumkinligi bo'yicha pilot rejimda baholanadi.

To'rtinchi bosqichda qayta tortishning institutsional jadvali ishlab chiqiladi. Bu bosqichda yillik re-weighting yoki kamida oraliq qayta kalibrlashning metodik qoidalari belgilanadi. Beshinchi bosqich esa shaffoflik va foydalanuvchi bilan kommunikatsiya bosqichidir: weights metadata, basket update sabablari va metodik o'zgarishlar muntazam e'lon qilib boriladi. Ushbu model O'zbekiston sharoitida vaznlar tizimini bosqichma-bosqich, ammo izchil modernizatsiya qilish imkonini beradi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda vaznlarni shakllantirish va yangilash

bo'yicha yagona universal sxema mavjud emas, biroq asosiy printsiplar o'xshash: household expenditure survey markaziy manba bo'lib qoladi, uni milliy hisoblar va qo'shimcha manbalar bilan boyitish orqali vaznlarning dolzarbligi ta'minlanadi. Ushbu xulosa O'zbekiston uchun ham to'liq dolzarbdur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iste'mol savatida tovar va xizmatlar vaznlarini hisoblash narx statistikasining eng muhim metodik bo'g'inlaridan biridir. Vaznlar tizimi iste'mol tuzilmasini indeks hisobiga olib kiradi va narx o'zgarishlarining umumiy natijaga qanchalik ta'sir qilishini belgilaydi. Shu sababli vaznlarning to'g'ri shakllantirilishi, tasniqlanishi, yangilanib borilishi va yuqori darajadagi agregatsiyada to'g'ri qo'llanishi INI sifatining asosiy sharti hisoblanadi [1; 2; 3; 6].

Rivojlangan davlatlar tajribasi vaznlar tizimini household expenditure surveys, milliy hisoblar va qo'shimcha ma'lumot manbalari uyg'unligida yuritish zarurligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada yillik basket va



weight review, Avstraliyada annual re-weighting, Yangi Zelandiyada CPI review orqali expenditure weightsni qayta ko'rib chiqish, AQShda relative importance ko'rsatkichlarini tizimli qo'llash — bularning barchasi vaznlarni dinamik boshqarish zarurligini tasdiqlaydi [3; 5; 7; 9].

O'zbekiston uchun asosiy metodik xulosa shuki, uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari vaznlar tizimining tayanchi bo'lib qolgan holda, uni zamonaviy statistika talablari asosida chuqurroq takomillashtirish zarur. Shu maqsadda besh ustuvor yo'nalish alohida ajralib turadi: HBS ma'lumotlarini milliy hisoblar bilan kalibrash; COICOP va ichki klassifikatorlar o'rtasidagi moslikni mustahkamlash; vaznlarni muntazam qayta ko'rib chiqish mexanizmini joriy etish; tranzaksiya va raqamli manbalardan yordamchi signal sifatida foydalanish; hamda metodik shaffoflikni kuchaytirish. Ana shu choralar iste'mol narxlarini indeksining reprezentativligi, tahliliy salohiyati va xalqaro standartlarga mosligini sezilarli darajada oshiradi [11; 12; 14; 15].

Maqolaning ilmiy hissasi shundan iboratki, unda vaznlar tizimi household survey bazasi, milliy hisoblar va qo'shimcha raqamli manbalar uyg'unligida kompleks tarzda ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich takomillashtirish modeli taklif etilgan. Amaliy jihatdan ushbu yondashuv vaznlarni shakllantirish va yangilash bo'yicha metodik qarorlarni asoslash, statistik qamrovni kengaytirish va rasmiy statistika amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Ismailova Shaxnoza Uktamovna O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi / Исмаилова Шахноза Уктамовна

Независимый научный исследователь института повышения квалификации кадров и статистических исследований / Ismailova Shakhnoza Uktamovna Independent researcher at the Institute of Personnel Training and Statistical Research of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan

E-mail: shaxnoza.ismailova.87@bk.ru

ORCID: 0009-0002-9591-0666

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Monetary Fund. Consumer Price Index Manual: Theory. Washington, D.C., 2025.
2. Eurostat. Harmonised Index of Consumer Prices (HICP) Methodological Manual. Luxembourg, 2024.
3. U.S. Bureau of Labor Statistics. Relative Importance and Weight Information for the Consumer Price Indexes. Washington, D.C., 2026.
4. U.S. Bureau of Labor Statistics. Handbook of Methods: Consumer Price Index Concepts and Design. Washington, D.C., 2025.
5. Office for National Statistics. Consumer price inflation, updating weights: 2025. London, 2025.
6. Office for National Statistics. Higher-level aggregation and weights in consumer prices. London, 2026.
7. Australian Bureau of Statistics. Weights and their sources. Consumer Price Index: Concepts, Sources and Methods. Canberra, 2025.
8. Australian Bureau of Statistics. Consumer Price Index, Australia methodology. Canberra, 2026.
9. Stats NZ. Consumers price index review: 2024. Wellington, 2025.
10. United Nations Statistics Division. Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP 2018). New York, 2018.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston statistika tizimini mustahkamlash loyihasi materiallari (Household Budget Survey modernisation bo'yicha). Toshkent, 2022.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Prezident qarori ijrosi bo'yicha ilova material: uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlarida planshet, KoBoToolbox va STATA dan foydalanish. Toshkent, 2021.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2022-yil yanvar-mart choraklik natijalar materiallari. Toshkent, 2022.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Consumer Price Index in the Republic of Uzbekistan, December 2025 press release. Toshkent, 2026.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Consumer Price Index in the Republic of Uzbekistan, January 2026 press release. Toshkent, 2026.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz